DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-26 Pages: 230-237

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



THE IMPORTANCE OF LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECTS IN TEACHING ARABIC

Malokhat R. Pulatova
Associate Professor, PhD in Philology
Department of Eastern Philosophy and Hermeneutics
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: *malohat0605@gmail.com*
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: arabic language, educational process, modern technologies, letters, words, memorization, reading, methods.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: Arabic is considered as one of the most difficult languages in the world. When teaching the Arabic language, first of all, it is necessary to learn the history, literature, geographical location, customs and national values of the Arab countries. In the process of teaching the language, students are explained the linguistic features of the Arabic language through a comparative analysis of the relationships and radically different aspects of the Uzbek language. This article shows the effectiveness of the use of modern information technologies in the educational process, the feasibility of teaching the Arabic language in 4 stages.

ARAB TILINI O‘RGATISHDA LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARNING AHAMIYATI

Malohat R. Pulatova
Filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) dotsent v.b.
Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Email: malohat0605@gmail.com
O’zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zi: arab tili, ta’lim jarayoni, zamonaviy texnologiyalar, harf, so‘z, yod olish, o‘qish, usul.

Annotatsiya: Arab tili o‘ziga xos murakkab tillar sirasiga kiradi. Arab tilini o‘rgatishda avvalo arab mamlakatlarining tarixi, adabiyoti, geografik o‘rni, urf odatlarini

, milliy qadriyatlarini ham tushuntirib, o‘rgatib borish kerak. Til o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga arab tilining til xususiyatlarini o‘zbek tili til xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va tubdan farq qiladigan jihatlarini qiyosiy tahlil orqali tushuntirib boriladi. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish usuli yuqorisa mara berishi, arab tilini o‘rgatish 4 bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi misollar orqali yoritib berilgan.

ВАЖНОСТЬ ЯЗЫКОВЫХ И КУЛЬТУРНЫХ АСПЕКТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

Малохат Р. Пулатова
Доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Кафедра Восточной философии и герменевтики
Ташкентский Государственный Университет Востоковедения
Email: malohat0605@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабский язык, учебный процесс, современные технологии, буквы, слова, запоминание, чтение, методика.

Аннотация: Арабский язык считается одним из самых сложных языков в мире. При обучении арабскому языку, прежде всего, необходимо учить историю, литературу, географическое положение, обычаи и национальные ценности арабских стран. В процессе обучения языка студентам объясняются лингвистические особенности арабского языка посредством сравнительного анализа взаимосвязей и радикально различных аспектов узбекского языка. В данной статье показана эффективность использования современных информационных технологий в учебном процессе, целесообразность обучения арабскому языку в 4 этапа.

Kirish

O‘zbek tili o‘z taraqqiyotida turkiy va boshqa tillar bilan yaqin aloqada bo‘lib, ular o‘zbek tilining lug‘at tarkibi va grammatik qurilishiga bevosita ta’sir etgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Volga bo‘yida Islom dinining yoyilishi, XI asrdan keyin arab tilining fan tili sifatida tarqalishi o‘zbek tilida arab elementlarining keng qo‘llanishiga olib keldi. O‘zbek tili tarkibiga arab elementlarining kirib kelishi forsiy badiiy adabiyot tili orqali ham yuz bergan. Shuning uchun, o‘zbek badiiy adabiyoti va adabiy tili taraqqiyotida arab tilining o‘rni sezilarlidir. Bu holat esa hozirgi ilm toliblariga arab tilining xususiyatlarini zarurat darajasida bilishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunoslik sohalari bo‘yicha arab tilini o‘rgatishda lingvokulturologik aspektlarning ahamiyatini o‘rganish va o‘rgatishda ko‘pgina olimlarning ilmiy

tadqiqotlari, tajribalari ilmiy nashrlarda, o‘quv qo‘llanma va darsliklarda o‘z aksini topgan Jumladan, B. Olidov, N.Ibrohimov, M.Yusupov, E.Talabov, M.Hasanov, M.Abzalova, D.Aliyev, T.Qodirov, O.Musayev, S.Qosimova, G.Mutalova, B.Begmatova, Sh.Zaynuddinova kabi tilshunos olimlarning ilmiy-nazariy tadqiqotlari amaliyotga tadbiq etib kelinmoqda. Tadqiqot materiallarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil asosida o‘rganildi.

Shuningdek, Ma’naviyatimiz tarixiga oid bo‘lgan ilmiy va adabiy asarlarning aksariyati arab tilida bitilgan. Bu asarlarni bugungi kunda o‘rganish katta ahamiyat kasb etib, tarix, til va adabiyot kabi fanlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borayotganlar uchun muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Arab yozuvi va tilini o‘rganish tarixiy manba’lar bilan tanishish va ulardan ilmiy, amaliy maqsadlarda foydalanish imkonini beradi.

Натижалар. Arab tili somiy tillar oilasining janubiy shahobchasiga oid bo‘lib, u o‘z geneologik taraqqiyotida uch bosqichni bosib o‘tdi: qadimgi adabiy arab tili, klassik adabiy arab tili va zamonaviy adabiy arab tili.

Qadimgi adabiy arab tiliga Arabiston yarim oroli va Suriyaning janubidagi ko‘hna obidalar va qoyalardan topilgan yozuvlar misol bo‘ladi. Ularning eng qadimgilari eramizning IV-VI asrlariga oiddir.

Klassik adabiy arab tilida esa eramizning VI-VII asrlarida asarlar bitilgan. Biz ularda mukammal grammatik qurilishga ega bo‘lgan, keng leksik tarkibli, johiliy davri nazmi va qabilalar lahjalarining nodir xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan boy tilni ko‘ramiz. Klassik adabiy arab tili hozirgi zamon adabiy arab tilining shakllanishi uchun zamin bo‘ldi. IX-X asrlarda klassik davrning adabiy tili to‘la shakllanib bo‘ldi. Bu davrga kelib Qur’oni karim, qadimiy nazm va Quraysh lahjasi ta’sirida arab yozuvi, sarf va nahvi shakllandi. Qur’oni karimning nozil bo‘lishi bilan klassik arab tili badiiyati yanada go‘zallashdi va grammatik me’yorlar mukammallashdi. Yetuk grammatik nizom va lug‘at boyligiga ega bo‘lgani uchun klassik arab tili qabilalar o‘rtasidagi adabiy til bo‘lib xizmat qildi. Uning lug‘at boyligi shevalar hisobiga ham ko‘payib bordi. Klassik arab tili islom dini bayrog‘i ostida Yaqin va O‘rta Sharqqa, Markaziy Osiyo va Afrikaning ko‘p hududlariga tarqaldi. Markaziy Osiyoda esa u uzoq muddat xalqaro va ilm-fan tili bo‘lib keldi. Dunyo fani ravnaqida chuqur iz qoldirgan buyuk bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy va Ahmad al-Farg‘oniylar shu tilda ijod qilishgan (Abu-Chakra, 2007, p. 2).

Klassik adabiy arab tili leksik jihatdan biroz o‘zgargan holda hozirgacha arablarning adabiy tili bo‘lib kelmoqda. Buning asosiy sababi arab dunyosi va barcha musulmon dunyosini birlashtirib turuvchi Qur’oni karim, Hadisi sharif (sunna) va boshqa mo‘’tabar manbalardir. Adabiy arab tili XIX asrdan boshlab yangicha ruhda shakllana boshladi. Yangi zamonaviy texnika

va taraqqiyot tushunchalari va predmetlarni ifodalash uchun unga Ovrupo tillaridan ko‘p o‘zlashtirma so‘zlar kirdi.

Mustaqil O‘zbekiston hozirgi kunda arab davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar o‘rnatmoqda. Arab tlini yahshi o‘zlashtirib, bemalol gaplasha oladigan arab tilida puhta tarjima qilib, ilmiy tadqiqotlar olib boradigan mutahassislarga talab katta. Shu bois respublikamizda arab tilini o‘rganishga ahamiyat berilib kelmoqda ekan, butun dunyoda arab tili jahon tili sifatida mavqei oshganligini, ko‘p davlatlarda uni o‘rganilayotganligini hisobga olib, nazarda tutishimiz kerak. Jahondagi 15 yirik tilning bittasi arab tilidir.

Adabiy arab tili bilan bir qatorda har bir arab davlati o‘z shevasiga ega. Hozirgi arab shevalari bir tomondan zamonaviy arab adabiy tilidan, ikkinchi tomondan bir-biridan talaffuz, lug‘at va nahv jihatida sezilarli darajada farq qiladi. Hatto, bir shevada gapiruvchi ikkinchi shevada so‘zlovchini tushunmasligi mumkin. Arab mamlakatlarida lahjalar faqatgina og‘zaki nutqda foydalanilmasdan, balki radio eshittirishda, teatr, kino va adabiyotda o‘z o‘rnini topmoqda. Ayniqsa, misr adabiyotida salmoqli o‘rin tutgan she’riy asarlar yaratilgan. Adabiy asarlardagi so‘zlashuv-dialog ko‘pincha lahjalarda yoziladi. Ba’zi bir yozuvchilar o‘z asarlarini ham adabiy tilda, ham lahjada yozadilar. Masalan, mashhur yozuvchii Mahmud Taymur birinchi bo‘lib ikki tilda yozish uslubini qo‘llagan.

Keng tarqalgan arab shevalarini o‘rgatish arab tilini o‘rganish jarayonidan o‘rin olgan.

Zamonaviy arab tili hozirda 22 ta arab davlatlarida “Davlat tili” maqomidadir. U ilm, fan, matbuot, badiiy adabiyotda, ijtimoiy-siyosiy, ommaviy xabarlarda, ta’lim-tarbiya muassasalarida, radio, televidenie, barcha davlat hujjatlari olib borishda qo‘llanadi. Zamonaviy adabiy arab tili har xil arab davlatlarida yashovchi arab xalqlari uchun umumiy bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlarida va yaqinlashish jarayonida muhim vositadir.

Arab tili o‘ziga xos murakkab tillar sirasiga kiradi. O‘zbekistonda arab tilini o‘rgatishga o‘zgacha bir muhabbat bilan yondashiladi. Bunga hammamiz guvoh bo‘lganmiz. Avvalam bor, arab tilini o‘rgatishda o‘zbek tili grammatikasi va arab tili grammatikasida bir-biriga mos bo‘lgan va farqli atamalarni ajratib olish zarur. Arab alifbosi 28 ta undosh harfdan iborat bo‘lib, yozuvda bu harflar 28 ta undosh tovushni ifodalaydi. Arab tili o’zaklarga asoslangan tildir. Ularning ichidagi 3 ta unlisifat undosh, 3 ta uzun unli tovushlarni ham ifoda etadi.

Undosh harfning 4 ta: mustaqil, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida ko‘rinishlari bor. Arab harfi alifbodagi boshqa harflar bilan ikki tomoni yoki faqat o‘ng tomoni bilan birikadi. Alifbodagi 28 ta harfning 22 tasi boshqa harfga ikki tomoni bilan birikadi. Ular to‘rt ko‘rinishli harflardir. qolgan 6 tasi boshqa harfga faqat bir (o‘ng) tomoni bilan birikadi. Ular ikki ko‘rinishli (ya’ni mustaqil holatdagi ko‘rinishga va so‘z boshi, o‘rtasi va oxiridagi ko‘rinishlari bir xil shaklga

ega bo‘lgan) harflardir. Bir so‘zda ketma-ket kelgan ikki ko‘rinishli harflar bir-biriga qo‘shilmay yoziladi.

Alifboda qisqa unlini ifoda etadigan harflar yo‘q. Qisqa unlilar yozuvda harakatlar deb ataladigan belgilar bilan belgilanadi. Harakatlar Qur’oni karimda, darslik va lug‘atlarda to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish maqsadida qo‘yiladi. Zamonaviy arab adabiyoti va vaqtli matbuot yozuvlarida harakatlar qo‘yilmaydi. Unlilarning uzun yoki qisqaligiga rioya qilmaslik so‘zlarning ma’nolarini tubdan o‘zgartirib yuboradi.

Arab yozuvining bir necha turlari mavjud bo‘lib, ular kufiy, suls, riq’a, nasx, ta’liyq, nasta’liq va rayhoniy kabilardir.

Til o‘qitishda, xususan arab tilini o‘rgatishda sinfdagi o‘quvchilar son 5 tadan 8 tagacha bo‘lgani maqsadga muvofiq bo‘ladi, bu sinalgan va tajribadan o‘tkazilgan usul. Bunda har bir o‘quvchining darsdagi ishtiroki to‘liq ta’minlanadi. O‘qituvchining ham e’tibori har bir bolaga qaratilishiga to‘liq zamin yaratiladi. O‘zaro muloqot jadallashadi.

Shuningdek, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida samimiylik bo‘lishi kerakki, o‘quvchi tortinib o‘qituvchidan tushunmagan tomonlarini so‘ray olmay, darsni tushunmasligiga yo‘l qo‘ymaslik kerak va aksincha o‘quvchi o‘qituvchini bilim olshidagi bir ko‘prik deb tushunishi zarur.

Arab tilini o‘rgatishda avvalo arab mamlakatlarining tarixi, adabiyoti, geografik o‘rni, urf odatlarini bir akademik soatda umumiy planda tushuntirib o‘tishi kerak. Undan keyingina arab tilining til xususiyatlarini o‘zbek tili til xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va tubdan farq qiladigan jihatlarini qiyosiy tahlil orqali tilni o‘rgatish yaxshi samara beradi. Bunda o‘quvchi o‘z ona tili grammatikasini tahlil qilish barobarida o‘zga tilni o‘rganishi osonroq bo‘ladi.

Arab mamlakatlari va arab tili haqida umumiy ma’lumot berilgandan keyingina arab yozuvining kelib chiqishi va arab alifbosi, yozuv xususiyatlarini o‘rgatishi mumkin.

Arab alifbosini o‘rgatishda albatta, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ancha yuqori samara bermoqda. Ta’lim texnologiyalari , bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innavasion texnologiyalarni olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutiladi. Xususan arab tilini o‘rganishda innovasion ta’lim texnologiyalarning bir necha turlari mavjud. Ulardan asosiysi, arab tili ¬ Qur’on va hadis tili bo‘lganligi bois, Qur’on oyatlari, hadislaran qisqa-qisqalarini, yodlashga oson bo‘lganlaridan tanlab o‘quvchigi yodlatish, so‘ngra yod olingan jumlalarning taxlili orqali arab tili grammatikasi tushuntirib boriladi, shu asnoda o‘quvchining arab tili grammatikasi haqidagi tasavvuri shakllanadi va bu bosqichma bosqich amalga oshiriladi.

Shuningdek chet tillarini, hususan arab tili, o‘rganish va o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalarning roli beqiyos. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni 4 bosqichda olib borish maqsadga muoviq bo‘ladi.Ular:

• Yozish;

• O‘qish;

• Gapirish;

• Eshitish;

• Yozish ¬ bosqichida arab yozivining o‘ziga hos murakkab xususiyatlari grafika orqali o‘rgatiladi. Masalan:

alohida shakl	so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida
ب	ـب	ـبـ	بـ
ت	ـت	ـتـ	تـ
ث	ـث	ـثـ	ثـ
ن	ـن	ـنـ	نـ

• O‘qish ¬ Bunda hadis, xalq maqollari, dialoglar, monologlardan unumli foydalaniladi.


حُبُّ الْوَطَنِ مِنَ الإِيْمَانِ. – **Vatanni sevish imondandir.**

النّظَافَةُ مِنَ الإِيْمَانِ. – **Tozalik imondandir.**

الحياء من الإِيْمَانِ. – **Hayo imondandir.**

Agar o‘quvchi arab grammatikasini yaxshi bilmasa harakatsiz yozilgan matnni to‘g‘ri o‘qiy olmaydi. Natijada jumla noto‘g‘ri tarjima qilinadi yoki hech bir ma’no chiqmaydi.

• Gapirish ¬ Bunda o‘qituvchi o‘quvchi bilan yoki o‘quvchi o‘quvchi bilan o‘zaro muloqat olib boradi, turli mavzularga oid savol javoblar o‘tkazadi. Bunda turli tarqatma materiallardan foydalaniladi.



• Eshitish ¬ bunda turli mavzulardagi audiomateriallardanunumli foydalaniladi. Masalan hafta kunlari, yil fasllari va boshqalar o‘qib eshittiriladi, tinglash orqali yodlanadi va mavzu mustahkamlanadi.

1. Dushanba يَوْمُ الاثْنَيْنِ yoki الاثْنَيْنِ
2. Seshanba يَوْمُ الثّلاَثَاءِ yoki الثّلاَثَاءُ
3.Chorshanba يَوْمُ الأَرْبَعَاءِ yoki الأَرْبَعَاءُ
4.Payshanba يَوْمُ الخَمِيسِ yoki الخَمِيسُ
5. Juma يَوْمُ الجُمْعَةِ yoki الجُمْعَةُ
6. Shanba يَوْمُ السَّبْتِ yoki السَّبْتُ
7.Yakshanba يَوْمُ الأَحَدِ yoki الأَحَدُ

Albatta har bir harfni o‘rgatayotganda shu harflar ishtirokidagi so‘zlarni yodlash uchun berib borish zarur. Harf o‘rganish bilan birga lug‘at yodlab o‘z samarasini bermoqda.

Yodlash uchun qo‘shimcha lug‘atlar:

وَلَدٌ	وَزَّةٌ	وَسَطٌ	وَرَقٌ	وَرْدَةٌ
Бола	Ғоз	Ўрта	Барг	Атиргул

Xulosa. Til o‘qitishda innovasion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchining kelajakda kasbiy faoliyatiga puxta nazariy zamin tayyorlaydi, ta’limning zamonaviy metodlari,

tashkiliy shakllari va vositalari bilan atroflicha tanishtiradi, o‘quvchining olgan bilimlarini maliyotga samarali qo‘llay olishlari uchun ko‘nikmalar hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ali, A. (2005). The basic book. Al-kitab al-asasi. – Qohira, - 140 p. (in Arabic).
2. Begmatova, B. M., Mutalova, G. S., & Kasimova, S. S. (2023). The Direct Object And Its Use In Arabic Language. Boletin de Literatura Oral - The Literary Journal, 10(1), 3601-3609.
3. Ibrohimov, N., Yusupov, M.(1997) Arabic grammar. Arab tili grammatikasi. – Tashkent. - 356 p. Ne’matullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y. (in Uzbek).
4. Khalidov, B. (1997) Arabic language. Xalidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika. T., 1997 g.. – Tashkent ,- 360 p. (in Russian).
5. Korayem, S.M.A., Shamusarov, S.G., Mutalova, G.S., Begmatova, B.M., Saidova, N.M. (2024). Calling for the Use of Intermediate Language in Teaching Arabic to Non-Native Speakers, Its Foundations and Problems. Power System Texnology Journal (1000-3673), 2221-2236.
6. Nasif, Khifni et al. Grammar lessons (2006). ad-Durus an-nahviyya. – Misr, al-Iskandariyya: Dar al-Aqida. – 415 p. (in Arabic)
7. Pulatova, M. R. (2022). The Role of Modern Technologies in Arabic Language Teaching..// Innovative approaches to foreign language teaching. Collection of materials of the Republican scientific and practical conference. Arab tilini o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati. - Tashkent, - 588 p. (264-269)
8. Abdulaziz, R. (2024). A Comparative Analysis of English and Arabic Prepositions: Syntax, Semantics, and Usage Patterns. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(5), 112-114. https://doi.org/10.5281/
9. Ziyamuxamedov, J. (2020) Methodology of teaching Chinese. J.Ziyamuxammedov. Xitoy tili o‘qitish metodikasi. T., 2020 y.. (in Uzbek)